



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH VA YOZISHDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Ismoilova Shahrizoda Toirxon qizi

Kirish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun harflarni o'rGANISH ularni ketma-ketlikda to'gri yoza olish va eng muhimi o'qish va yozishdagi bilimlarni kamchiliklarsiz shakillantirish jarayoni hisoblanadi. Bu bosqichlarda ba'zi o'quvchilarda turli sabablarga ko'ra kamchiliklar yuzaga kelishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish o'qituvchi, ota-onasi va o'quvchining hamkorligidagi qat'iy harakatlarini talab etadi. Ushbu maqolada o'qish va yozishdagi kamchiliklarning sabablarini aniqlash va ularning bartaraf etishning samarali va kerakli usullari haqida so'z yuritiladi.

Kamchiliklarning sabablari:

Oilaviy muhit:

Uy sharoitida o'quvchilar bilan ishlashning yo'qligi yoki yetarli darajada e'tibor va rag'batlarning bo'lmasligi

Psixologik holat:

Bolaning ichki va tashqi psixologik ta'sirchanlik holati, o'ziga ishonchsizligi yoki yangi bilimlarni o'zgartirishdagi qo'rquvi hisoblanadi.

Jismoniy omillar:

O'qish, eshitish yoki ko'rish qobiliyatidagi muommolar, nutq nuqsonlari bor bolalar

Pedagogik omillar:

O'qitish usullarining mos kelmasligi, shaxsiy yondashuvning yetishmasligi



Kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari

Induvidual yondashuv:

Har bir o'quvchining qobiliyati va o'rganish tezligi turli ko'rinishda bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar va ota-onalar bolaning imkoniyatlarinitaxlil qilgan holda, individual yondashuv qo'llanilishi kerak. Masalan:

-Harflar va matnlarni o'qishda qiynaladigan o'quvchilar uchun qisqa va sodda matnlar tanlash zarur.

-Yozuv malakasi pastroq rivojlangan bolalarga harflar va so'zlarni ko'proq yozish uchun qo'shimcha vaqt ajratishi kerak.

O'qishga va yozishga qiziqishini oshirish

Bolalarni o'rganishga, o'qishga va yozishga qiziqtira olish bu jarayonda asosiy omil hisoblanadi. Bu qiziqishlarni oshirish uchun quidagi misollardan foydalanishimiz mumkun.

-Rangli rasmlar va interaktiv o'yinlardan foydalanish

-Qiziqarli ertaklar va hikoyalarni ovoz chiqargan holda o'qish

-Bolalarni kichik guruhlarga bo'lib, jamoaviy mashqlar o'tkazish

O'qish va yozishni bosqichma-bosqich o'rgatish.

O'quvchilarga harflarni, tovushlarni va ularning talaffuzini bosqichma-bosqich o'tkazish zarur. Bu jarayonda biz har bir harfga alohida yondashamiz. Masalan:

-Harflarning tovushlari bilan birga o'rgatish "A"-aaa.

-Harflardan so'z tuzishni mashqlar yordamida o'rgatish

-So'zlardan oddiy jumlalar yaratish va jumlalarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish

Nutq rivojini qo'llab-quvvatlash

Bolalarning nutq rivoji to'g'ridan-to'g'ri o'qish va yozish ko'nikma va malakalariga ta'sir qiladi. Buning uchun nutqni rivojlantirish zarur. Masalan:

-She'rlar va qisqa hikoyalarni yodlash

-Tovushlarni qisqa talaffuz qilish bo'yicha mahsus mashqlar bajarishni muntazam ravishda amalga oshirish

-Lug'at boyligini oshirish uchun yangi so'zlarni qo'shimcha qilish

O'yin texnologiyalaridan foydalanish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin texnologiyalari juda samarali bo'lib bolalarga o'qish va yozishni o'rgatish mumkun:

So'z top o'yini:

-Berilgan harflar yoki tovushlardan so'zlar tuzish

Harf yodlash o'yini:

-Alifbo harflarni tartib bilan joylashtirish yoki aralash harflardan so'z yasash

Qiziqarli diktant:

-Qisqa hikoyalar yozish ham bolaning e'tiborini mustahkamlaydi

Uy sharoitida mashq qilish

Uy sharoitida ota-onalar maximal yordam bera olishligi zarur. Masalan:

-Har kuni 15-20 daqiqa kitob o'qish va yozish mashqlari bilan shug'ullantirish

-Bolalar bilan birga do'kon ro'yhati, yaqin insonga maktub yoki o'zi haqida qisqacha hikoya yozish

-Mantiqiy o'yinlar orqali harflar va so'zlarni mustahkamlashga yordam beradi

Muttaxasis yordami:

Agarda bolaning muommosi jiddiyroq bo'lsa masalan desleksiya, nutq buzulishlari yoki psixologik muommolari bo'lsa logoped yoki psixolog yordamini olish zarur bo'ladi. Muttaxasislar bolaning extiyojlariga mos mahsus mashqlarni tavsiya etadilar.

Xulosa:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yozishdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'qituvchi, ota-onalar va mutaxassislar hamkorligi zarur. Tizimli, innovatsion va individual yondashuv orqali bolalarning o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni kelajakda muvoffaqiyatli shaxs sifatida shakillantirish mumkin. Bolalarga o'qish va yozishni sevdirish orqali ularni kelajakdagi ta'limiy va ijtimoiy muvoffaqiyotlari uchun mustaxkam poydevor yaratamiz.

Bu maqolamni yozishda yaqindan yordam bergan oila a'zolarim va Ilmiy raxbar Hamidova Muborak hamda Nusratova Hamida ustozlarimga minnadorchiligidimi bildiraman.